

Kirish.....	2
I BOB. ABITURENTLAR BILIM OLIISHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARINING O'RNII.	
1.1 Zamonaviy texnologiyada abiturentlarga bilim berish jarayoni.....	4
1.2. Imtihonga tayyorlanishning yo'llari turli tuman texnologialar.....	7
1.3. Axborot texnologialari asrida elektron kutubxona va kompyuterdan bilim olish.....	11
II BOB. INSTRUMENTAL VOSITALAR BILAN ISHLASH.	
2.1 Dasturiy vositani ishlab chiqishda foydalanilgan yii2 frimwork haqida ma'lu- mot.....	19
2.2 Yii2 frimworkda baza bilan ishlash muhiti.....	24
“Abiturent” dasturiy vositasini ishlab chiqish.	

KIRISH

Hozirgi davr abiturentlariga online tarzida xizmat ko'rsatish resurslarini yanada rivojlantirish chora tadbirlarini takomillashtirish. Bu xizmatni rivojlantirish yangi turdagi malumotlarni qanchalik muhimligi bilan belgilanadi. Veb sayt aynan shu maqsadda yaratilgan asosiy manbaalardir. Ayniqsa o'quv-ta'lim jarayonida ularning o'rnini beqiyos.

Mamlakatimizda ta'limga alohida e'tibor berilgan. Yirik manzilli Davlat dasturlari asosida o'quv muassasalarida (maktablarda, kasb-hunar kollejlari va litseylarda, institut va universitetlarda) texnik sharoitlar hozirlangan. Kompyuter texnikasi bilan to'liq ta'minlangan. Endi o'quv jarayoniga informatsion texnologiyani qo'llash eng dolzarb masala. Bu sohada respublikamizda ishlar qizg'in bormoqda. Veb sayt ishlanmalarining ta'lim sohasidagi qo'llanishi bilan ta'lim sifatining keskin oshishiga, o'quvchilarning mustaqil bilim olishlariga asos bo'ladi. Elektron o'quv nashrlarining alohida turi hisoblangan elektron darsliklar bilimlarni ko'rgazmali va jonli yetkazib berishi bilan ajralib turadi.

Yangi Informatsion texnologiasi tushunchasiga kommunikatsiya texnologiyalari ham kiritilgan, ular Informatsion turli mesenjirlar bilan, xususan telegram, watsap, facebook va boshqalar orqali uzatishni ta'minlaydi. Yangi informatsion texnologiyalari – foydalanuvchi ishining «do'stona» interfeysli Informatsion texnologiyasi bo'lib, bunda shaxsiy kompyuterlar va telefon vositalaridan foydalaniladi.

Ushbu bitiruv ishi ta'lim sohasiga mo'ljallangan elektron o'z bilimlarini va ulardan resurs markazlarida foydalanish borasidagi texnologiyalarni tahlil etish hamda elektron nashlarda o'quvchi bilimini sinash modullarini yaratishga bag'ishlangan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Asosiy maqsad abiturentlarga elektron resurslarda bilimini sinash modullarini yaratish texnologiyasining nazariyasini o'rganish va amaliyotini qo'llash chiqish.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajaradi: axborot resurslarini klassifikatsiyalash; o'quvchi bilimini sinash usullari tahlil etish; o'quvchi bilimini sinash modullarini yaratish texnologiyasi nazariyasini amalda qo'llagan holda muayyan elektron resursda sinab ko'rish.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti: Tadqiqoti ob'ekti abiturent bilimini sinash modullarini yaratish va taqdim etish jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijasida tayyorlangan o'z bilimini sinash modulining elektron ta'lim resursi tarkibiga kiritilishi amaliy ahamiyat kasb etadi. Yaratilgan modul elektron resurs tarkibiga kiritilmagan holda, avtonom foydalanishi mumkin.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi 3 bob, kirish, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilova bo'limlaridan tashkil topgan.

Birinchi bobda axborot texnologiyalarining tutgan o'rni haqida to'xtalib o'tilgan.

Ikkinchi bobda dasturiy vositani ishlab chiqishda foydalanilgan dasturiy ta'minotlar haqida ma'lumotlar keltirilib o'tilgan.

Uchinchi bobda esa, dasturiy vositani ishlab chiqish texnologiyasi, natijalar va hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha to'xtalib o'tilgan.

I BOB. ABITURENTLAR BILIM OLIISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

1.2 Zamonaviy texnologiyada abiturentlarga bilim berish jarayoni.

Umuman olganda o'quv jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalarning roli kun sayin ortib bormoqda. Masofaviy texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta'limning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bugungi kunda Yer kurrasining istalgan joyidan turib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) imkoniyatidan foydalangan holda ta'lim olish mumkin. Zero an'anaviy ta'lim o'z mavqeini saqlab tursa ham, keyingi paytlarda masofaviy o'qitish texnologiyalari kundan-kun ommaviylashib bormoqda.

Endilikda abituriyentlar va o'quvchilar mobil telefon, planshet yoki kompyuter orqali zamonaviy axborot texnologiyalari yutuqlaridan unumli foydalangan holda oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlariga innovatsion usulda tayyorgarlik ko'rishlari mumkin. Ya'ni uyda, o'quv muassasasida, internet kafelarda **aql.uz** sayti yordamida bir necha turdagi test sinovlarini topshirishlari va o'z bilimlarini mustahkamlab borishlari mumkin.



Kelayotgan 1-avgust imtihonlariga tayyorlanishda ushbu innovatsion usuldan ham foydalanib ko'rsangiz aslo yutqamaysiz, hoziroq tizimdan ro'yxatdan o'tgan holda uning imkoniyatlarini sinab ko'ring. Biz esa tizimning asosiy qulayliklari va boshqa bu kabi tizimlardan ustunliklarini batafsil yoritib beramiz.

Birinchidan, ayni damda tizim bazasi 2 mingtaga yaqin test savollaridan tashkil topgan, bunda kirish imtihonlarida mavjud barcha fundamental fanlar: matematika, fizika, kimyo, biologiya, ingliz tili, o'zbek tili va adabiyoti, tarix, geografiya, informatika fanlaridan turli darajadagi testlar foydalanuvchilarga taqdim etiladi. Tizim bazasi doimiy ravishda yangi test savollari

bilan to'ldirilib borilmoqda. Yaqin kunlarda rus tili va adabiyoti, fransuz va nemis tillari hamda qardosh tillar (qoraqalpoq, qozoq, tojik, turkman tillari) bo'yicha ham test savollari ishga tushadi.

Ikkinchidan tizimda mavzulashtirilgan testlarni topshirishingiz mumkin. Siz o'zingiz uchun kerak bo'lgan fanni va mavzuni tanlagan holda 10 tadan 40 tagacha bo'lgan test savollaridan iborat sinovni xohlagancha topshira olasiz. Bunda foydalanuvchi tomonidan kamida ikki marta to'g'ri ishlangan savol foydalanuvchiga qayta taqdim etilmaydi, xato ishlanayotgan test savollari keyingi sinovlarda takroriy beriladi. Bu imkoniyat Sizning biror bir mavzuni chuqur va puxta o'zlashtirish-ingizda katta yordam beradi.

Uchinchidan, tizimda blokli testlarni ishlash uchun Virtual imtihon topshirish imkoniyati mavjud. Foydalanuvchi tomonidan tanlangan mutaxassislik va oliy o'quv yurtiga mos ravishda 3 ta fandan 30 talik, jami 90 ta test savoli 3 soat davomida taqdim etiladi. Bunda abituriyent huddi 1-avgust imtihonlarida bo'lgani kabi test sinovini topshiradi hamda yakuniy natijalarga ega bo'ladi. Bu usul abituriyentning kirish imtixonlariga tayyorgarlik darajasini mustaqil baholash uchun qulay vositadir. Tizimda istalgan vaqtda, istalgancha virtual imtihon topshirish imkoniyati mavjud. Virtual imtihonlar uchun 90 ta savoldan iborat blokli testlar doimiy yangilanib, ko'paytirilib boriladi. Har xil variantlarda test savollarining qaytarilish darajasi juda ham minimal. Ushbu havolani ochish orqali DEMO TEST topshirgan holda virtual imtihon topshirish jarayoni bilan tanishib chiqishingiz mumkin.

To'rtinchidan, foydalanuvchi topshirgan testlar va sinov natijalari uning shaxsiy profilida yig'ilib boriladi. Bu esa uning bilim darajasini monitoring qilish, shaxsiy rivojlanish ko'rsatgichlarini tahlil qilish va qaysi fanlarda qaysi mavzulardan ko'rsatgichlari past ekanligini nazorat qilib borish imkoniyatini beradi. Abituriyent o'z bilimlarini mustahkamlash uchun mavzuli testlar va virtual imtihonlarni qayta topshirgan holda bilimlarini mustahkamlab natijalarni yaxshilab borishi mumkin.

Beshinchidan, tizimni ishlab chiqish jarayonida foydalanuvchilar uchun maksimal qulaylik yaratishga katta etibor berilgan. Bunda:

- test savollari tiniq shriftlarda berilgan;
- matematik formulalar tushunarli va chiroyli tarzda berilgan;
- sayt dizayni va rasmlari ma'lumotlar TAS-IX hududidan yuklanishi hisobiga tarfikni tejash hamda tizimga tezlikda kirish imkoniyati mavjud;
- test topshirish oynasida savollar ketma-ket joylashgan, javob varaqasi esa qulay ko'rinishda;
- savoldan-savolga o'tish, javoblarni belgilash jarayonida sahifa qayta yuklanmaydi;
- natijalar sinxron ravishda foydalanuvchi profiliga saqlanib boriladi;
- tugallanmay qolgan testlarni ixtiyoriy vaqtda davom ettirish imkoniyati mavjud;

- saytning mobil versiyasi mavjudligi undan mobil telefonlar va planshetlarda ham foydalanish imkoniyatini taqdim etadi;
- akkaunt balansini Click va Payme to'lov tizimlari yordamida to'ldirish imkoniyati mavjud;
- test savollarida uchragan imlo va mazmuniy xatoliklar haqida maxsus forma orqali xabar bergan holda Siz qo'shimcha bonus ballariga ega bo'lasiz.

Bundan tashqari tizimda yurtimizdagi oliy o'quv yurtlari, ulardagi mutaxassisliklar, har bir mutaxassislik uchun kirish imtihonlaridagi fanlar bilan tanishib chiqishi mumkin. Eng asosiysi 2016–2017–2018-yillarda o'tqazilgan oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlari natijalari qulay shaklda sizga taqdim etiladi. Bu ma'lumotlar yordamida Siz har bir ta'lim tili kesimida grant va kontrakt uchun kirish ballari, o'rtacha o'tish ballari, qabul kvotalari, arizalar soni va bitta o'ringa mos kelgan abituriyentlar soni bilan tanishib chiqishingiz, ularni solishtirish va qulay usulda taqqoslashingiz ham mumkin. Bu qulayliklar Sizga oliy o'quv yurti va mutaxassislikni ikkilanmay tanlashga katta yordam beradi.

MUTAXASSISLIK	KOD	QABUL	TANLOV	GRANT	SHARTNOMA
Axborot xavfsizligi (sohalar bo'yicha) XD96 / Matematika / Fizika / Chet tili	5330300	45 15 / 30	8.0 358	162.6 175.6	133.6 146.7
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida iqtisodiyot va menejment XD94 / Matematika / Ingliz tili / Ona tili va adabiyoti	5350300	37 11 / 26	11.8 438	170.9 182.6	153.5 161.4
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi XD93 / Matematika / Fizika / Chet tili	5350400	29 7 / 22	13.1 381	142.1 149.8	120.9 129.6
Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik XD95 / Matematika / Ona tili va adabiyoti / Ingliz tili	5350600	45 15 / 30	14.4 650	140.3 150.5	106.7 122.8
Dasturiy injiniring XD93 / Matematika / Fizika / Chet tili	5330600	112 45 / 67	7.6 854	154.4 166.8	134.6 143.9
Kompyuter injiniringi ("Kompyuter injiniringi", "AT-Servis", "Axborot xavfsizligi", "Multimedia texnologiyalari") XD93 / Matematika / Fizika / Chet tili	5330500	277 97 / 180	6.1 1686	153.8 167.1	130.5 141.3

Yaqin kunlarda tizimda bilimdonlarning davriy reytingi, shaxsiy rivojlanish ko'rsatkichlarining dinamikasi va grafikasi, abituriyentning tanlagan mutaxassislik bo'yicha mos oliy ta'lim muassasalariga kirish ehtimolligini baholash kabi imkoniyatlar qo'shiladi. Mobil qurilmalar uchun **aql.uz** saytining ilova dasturi ishga tushiriladi.

Abituriyentlarning asosiy maqsadlari bu imtihonlardan o'tib talaba bo'lish, o'z hayot yo'lini tanlashdir. Bu maqsadga yetishish yo'lida abituriyentlarga ota-onalari, o'qituvchilar va ustozlari ko'maklashishadi. Shunday narsalar borki ularga bizni hech qaysi maktabda o'rgatishmaydi. Taniqli milliarder Bill Geyts ularni yaxshi biladi va bu

bilimlari, tajribasi bilan bo'lishadi. Agar siz bu tavsiyalarga amal qilsangiz, kelajakda omadli o'z maqsadlariga erisha oladigan insonga aylanishingiz mumkin.

1-qoida

Qanchalik qayg'uli bo'lmasin, hayot-juda shavqatsiz. Afsuski, buni o'zgartirib bo'lmaydi va bu narsa haqida o'ylamay faqat oldinga intilish kerak.

2-qoida

Sizda o'zingizga, bilimlaringizga, maqsad va vazifalaringizga nisbatan ishonchsizlik bormi? Dunyoning bu bilan ishi yo'q. Real hayot sizni doim oldinga intilishga va dadil bo'lishga undaydi, va siz maqsadlaringiz tomon ishonch bilan borishingiz shart.

3-qoida

O'qishni tugatgan zahotingizdayoq siz millionlar pul ishlab topishni boshlamaysiz va yirik kompaniyada direktor bo'lib qolmaysiz. Hamma narsaning o'z o'rnini bor, siz bu yo'lda ko'plab hatolar qilasiz, omadsizliklarga duch kelasiz, ko'p o'qib o'rganishga qayta va qayta harakat qilishingizga to'g'ri keladi.

4-qoida

Agar siz omadsizlikga uchragan bo'lsangiz, ota-onangizni bunda aybi yo'q. Siz allaqachon mustaqil bo'lgansiz va o'zingiz uchun javob berishni o'rganishingiz kerak.

5-qoida

Balki, sizning o'quv dargohingizda o'quvchilar yetakchilar va omadsizlarga bo'linmas, lekin hayotda hammasi boshqacha. Bazi bir holatlarda yomon baho qo'yilmasligi mumkin sizga ikkinchi imkoniyat berish uchun, lekin bu haqiqiy hayotda umuman uchramaydigan holat.

6-qoida

Hayotning semestrlari, yozgi va qishki ta'tillari yo'q, sizda dam olishga va erinchoqlik qilishga vaqt bo'lmaydi. Bo'lajak ish beruvchilaringizga bo'lsa siz hayotda o'ringizni topmadim, bu oylik maosh juda kam degan fikrlaringizni umuman qizig'ini bo'lmaydi. Ishlashni istamaysizmi-unda ishlamang!

7-qoida

Televideniye, bloglar va ijtimoiy tarmoqlar real hayot emas. Haqiqat shundayki, odamlar ishlashiga to'g'ri keladi, kafeda o'tirib ijtimoiy tarmoqda kun kechirish emas.

8-qoida

"Botanik" va "Aqlli" larni hurmat qiling. Chunki kelajakda aynan ularning qo'lida ishlashingiz ehtimoli bor.

1.2. Imtihonga tayyorlanishning yo'llari turli tuman texnologialar .

Statistikaga ko'ra 2017 yil OTMlarga 729947 nafar abituriyent o'z hujjatlarini topshirgan bo'lib Respublikamiz Oliygo'hlari kvotalar soni 66317 ta. Bu yerdan ya-

qqol ko`rinib turibdiki bir o`ringa o`rtacha 10.97 kishi to`gri keladi. Demak abituri-entlarning 10% talabalik bahtiga yetishadi. Bu borada faqatgina qo`shimcha darslarga borish yetarli emasligi yaqqol ko`rinib turibti shuning uchun ilm o`rganishdan to`htamang. O`zingizni yetarlicha bilimga ega bo`ldim deb hisoblagan vaqtingizda statistikaga etibor bering bu sizga sizning qanchalik qunt bilan test sinovlariga tayyorlanishingiz kerakligini eslatib turadi!



O`z o`rganish uslubingizni aniqlab oling! Barchamiz har xil insonlarmiz, shuning uchun imtihonlarga tayyorlanish strategiyasi ham farqlanadi. O`z qobiliyatlaringizdan kelib chiqing. Agarda siz audial bo`lsangiz darsliklarni va konspektlarni ovozingizni chiqarib o`qing, agar kinestetik bo`lsangiz – o`z konspektlaringiz asosida shpargalkalar yozing va javoblaringizning rejalarini tuzib chiqing. Agar har bir yangi mavzuni avvalgilarisiz tushunishni iloji bo`lmasa, unda faqat bir yo`li qoladi: barchasini tartib bilan o`rganing. Shuningdek, murakkab savollardan boshlash kerak, degan tushuncha bor. Ular uchun etarlicha vaqt ajratish kerak. Yaxshisi ularni toliqmasingizdan avvalroq o`rganishni boshlasangiz yaxshi bo`ladi. Oson savollarni keyingiga qoldiring. Yodlab olishga emas, tushunishga harakat qiling Yodlab olish — yutqazib qo`yishga olib keladi. Bundan tashqari, u uzoq vaqtni o`g`iraydi. Savollardagi mantiqiy aloqalarni qidiring, bog`liqliklarni o`ylab toping. Albatta, har bir narsada yoddan bilish zarur bo`lgan ma`lumotlar bor: sanalar, formulalar, echimlar. Biroq mantiqni anglab etsangiz, ularni eslab qolish yanada osonroq bo`ladi. Imtihonlarda mavzuni o`z so`zlaringiz bilan aytib bering. Javob tushunarli bo`lishi uchun yaxshilab fikrlang. «3–4–5» metodikasi Birinchi kun fan bo`yicha bilimlarni yangilash uchun o`z metodichkangizni o`qib chiqing. Bunday holda siz hech bo`lmaganda 3 bahoga loyiq bo`lishingiz kerak. Ikkinchi kun aynan o`sha savollar

ustida ishlang, biroq darslik bo'yicha. Bunda siz ko'proq murakkabliklarga oydinlik kiritasiz. Agar tirishqoqlik bilan harakat qilsangiz, demak 4 ga torta olasiz. So'nggi kun o'z javoblaringizni ideal darajaga olib chiqing: takrorlang, bo'shliqlarni to'ldir-ing, eslab qoling. Uchinchi kundan so'ng, imtihonni a'lo bahoga topshira olasiz. Ikki kunni o'rganishga, bir kunni esa qaytarishga ajrating. Tizim juda oddiy: barcha mavzuni ikkita teng qismga ajratish va ularni ikki kun ichida o'rganish kerak. Uchin-chi kun to'liq yodlashga sarflansin. Bir mavzuga yopishib olmang Agar bitta savol ustida uzoq vaqt o'tirganingizni his etsangiz, uni tashlab keting. Tayyorgarlikda eng yaxshi rag'batlantirish — taymer. Bu mavzuga qancha vaqt ajrata olasiz, shuni cha-malagan holda, keyingilariga o'tishingiz kerak bo'ladi. Vaqt bo'yicha cheklovlar qo'ying Har bitta mavzuni uzoq va cheksiz o'rganish mumkin, shu sababli eng aso-siy ma'lumotlarni yodda saqlashga harakat qiling. Darslikdagi katta bo'limdan eng kerakli bo'lgan fikrlarni ajratib chiqing: kichik hajmda tuzib olingan mavzuni eslab qolish oson. Savol uchun javob berish rejasini tuzing Har qanday, hattoki, eng uzun va murakkab savolni bir necha so'zlar bilan ifodalash mumkin. Xuddi shunday javo-blarni ham qisqaroq va tushunarliroq ifodalang. Bu mavzularni xotirada yaxshi saqlanishiga yordam beradi. Ikkita yoki uchta bo'lib tayyorlaning Sizga eng qiyin tuyulgan mavzularni yozib oling. Unga jamoa bilan birgalikda echim topish tez va osonroq bo'ladi. Siz kabi imtihon topshirayotgan do'stlarni uchrashuvga chaqirib, birgalikda tayyorlaning. Uchrashuv an'anaviy suhbatlar, hazil yoki dam olishga aylanib ketishi mumkin, lekin eng muhim vazifa va maqsadingiz yoddan chiqmasin. (Internet.ma'lumotlari asosida)

The screenshot displays a digital learning interface. On the left, there are two math problems. Problem 10 asks for the possible values of x that satisfy the equation $\frac{4}{x+3} + \frac{7}{\sqrt{x+3}} = \frac{1}{x^2+5x+6}$. The options are: a) $(-3; -2) \cup (-2; \infty)$, b) $(-2; \infty)$, c) $(-\infty; -2)$, and d) $(-3; -2)$. Problem 11 asks for the values of m such that the system of equations $\begin{cases} x - y = m - 1 \\ 2x - y = 3 - m \end{cases}$ has a positive solution for y. The option is a) $(\frac{5}{2}; 2)$. On the right, there is a timer showing 2:58:35 and a progress bar. Below the timer, there are three sections: Matematika (3.1) with 7/36 questions, Fizika (2.1) with 0/36 questions, and Ingliz tili (1.1) with 0/36 questions. Each section has a grid of numbered buttons (1-36) for selecting questions.

Masofaviy ta'lim texnologiyasi ZGA elektron axborot ta'lim muhitiga keng spektrli vositalari kiritilgan, ya'ni ma'ruzalar, supertyutorlar, mantiqiy sxemalar, moslashuvchi test-treninglar, testlovchi va baholovchi dasturlar, ZGA xizmatchilarning bu individual ish rejalari tuzuvchi, mashg'ulotlarga, baholashga,

rejalar bajarilishini nazorat qiluvchi, moliyaviy hi-soblarni amalga oshiruvchi va reyting daftarchalarni shakllantiruvchi tashkiliy didaktik robotlardir.

Elektron ta'limiy manbalarga kirish talabani saytdagi «Shaxsiy studiya» orqali amalga oshiriladi. O'quv jarayonini ma'murlash IIS «Nur» intellektual axborot tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu tizim har bir talabani o'qishga kirganidan to diplom olgungacha qadar bo'lgan vaqtdagi o'qishini kuzatib boradi va nazorat qiladi, baholash va akademik ma'murlashda talabani elektron tarzda identifikatsiya-laydi. Respublikamiz ta'lim muassasalarining barcha bo'g'inlarida takomillashgan tamoyillarga asoslangan yuqorida keltirilgan tizimlarni joriy etsak, o'ylaymanki ta'lim jarayonida olib borilayot-gan islohatlarning namunali, samarali ijrosining bir bo'lagi bo'lib xizmat qiladi.

"Kirish ballari eng kam joyga tahmin bilan kiraman " bu ham eng ko'p tarqal-gan fikr va eng oson yo'l, lekin bu abiturentlikni yana bir yilga cho'zishga olib bo-radigan eng oson yo'l desak to'g'riroq bo'ladi. Tanlagan yo'nalishingiz, Imtihon natijasi birinchi navbat sizning kelajakdagi hayotingiz qanday kechishini belgilab beradigan muhim jarayondir, imtihonga yengil qaramang.

"Shpargalka va kalkulyator- imtihondagi do'stlarim" ha balki shpargalka sizga biron naf keltirar, lekin siz uni ishlatishga harakat qilib imtihondagi qimmatbaho vaqtingizni yo'qotishingiz tayin. Ikkinchi masala sizning fikring bo'linib Test savol-larini yechishni uddalay olmasligingiz mumkin. Shuning uchun repitorga qatnaysizmi yoki o'zingniz mustaqil uyda tayyorlanasizmi iloji boricha kalkulyator-dan va boshqa "yordamchi"lardan foydalanmang, shunda imtihon oson kechadi.

"Men hozir ishlashim kerak, o'qishga tayyorlanishga vaqtim yetmaydi" keling sizga bir savol bersak: "Siz haftada nechchi kun va kuniga nechchi soat ishlaysiz?". To'g'ri sizning ishingiz juda og'ir va ishdan keyin miyamga hech nima kirmaydi deyishingiz mumkin. Bu masalada tanlov o'z qo'lingizda: Yaxshi kelajakni yosh-likda qiynalib qurishmi yoki yosh ulg'ayganda qiynalib hayot kechirishmi? Keyingi savol siz televizor va ijtimoiy tarmoqlarga vaqtingizni qanchasi ketishini hisoblab ko'ring va siz anchagina bo'sh vaqtingiz borligini anglarb yetasiz.

Davlat test markazi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishda test sinovi orqali tanlab olishga oid davlat siyosatini amalga oshiruvchi yagona vakolatli davlat boshqaruvi organi bo'lib, uning amalga oshiradigan vazifalaridan biri pedagogik o'lchov vositalarini takomillashtirish hisoblanadi. Bu sohada pedagogik o'lchov vositalarini ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish talablari bo'yicha metodik ko'rsatmalarni ishlab chiqish, ekspertlar uchun testologiya asoslari bo'yicha semi-narlar tashkil etish vazifalari belgilangan.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida Davlat test markazining Testologiya, pedagogik o'lchovlar va ilmiy-metodik kadrlar tayyorlash bo'limi tomonidan o'zbek

tilida “Pedagogik o‘lchovlar nazariyasi asoslari”, “Pedagogik o‘lchovlarda test topshiriq turlari”, “Test tuzish metodikasi va ekspertizasi” nomli uslubiy qo‘llanmalar Davlat test markazida to‘plangan ilmiy-uslubiy tajribalar inobatga olingan holda tayyorlandi va nashr qilindi.

“Pedagogik o‘lchovlar nazariyasi asoslari” nomli uslubiy qo‘llanmada pedagogik o‘lchovlar nazariyasining konseptual apparati, ta’limda o‘lchov natijalarining ishonchliligi va validligi haqida hamda Pedagogik o‘lchovlarning ob’ektivligi, o‘lchov fazosi o‘lchami, o‘lchovlarning darajasi va shkalalari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, xulosa, amaliy topshiriqlar va muhokama uchun savollar berilgan.

“Pedagogik o‘lchovlarda test topshiriq turlari” nomli uslubiy qo‘llanmada pedagogik o‘lchovlarda qo‘llaniladigan Test topshiriqlariga qo‘yiladigan umumiy talablar va ularning klassifikatsiyasi bo‘yicha ma’lumotlar, shuningdek, test topshiriq shakllarining qiyosiy xarakteristikasi, munozara uchun amaliy topshiriq va nazariy savollar berilgan.

“Test tuzish metodikasi va ekspertizasi” nomli uslubiy qo‘llanmada test materiallarini tayyorlash metodikasining mazmuni yoritilgan, test topshiriqlari turlari keltirilgan, shuningdek, ekspertlar tomonidan test materiallarining sifatini baholashning yo‘nalishlari, tamoyillari va beradigan tavsiyalari bayon etilgan.

Uslubiy qo‘llanmalar o‘quvchilar bilimlarini baholashda pedagogik vosita sifatida testlardan foydalanadigan pedagoglarga, turli o‘quv fanlari bo‘yicha test tuzuvchi mutaxassislarga, test topshiriqlari ekspertizasini amalga oshiruvchi ekspertlarga, hamda testologiya bo‘yicha ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilarga yordam berish uchun mo‘ljallangan.

1.3 Axborot texnologialari asrida elektron kutubxona va kompyuterdan bilim olish.

Har birimizning hayotimizda axborot olamining ahamiyati tobora kuchayib borayotgani kundek ravshan. «Infosfera» (axborot olami) olis manzillarni yaqinlashtirib, oraliqdagi masofalarni qisqartirmoqda. Mazkur olamda insoniyat tarixining barcha bilimlari jamlangan. Bizdan esa “Infosfera”ning kirish eshigi, undan foydalanish imkonini beruvchi asosiy kalit – internetni bilish talab etiladi, xolos. Bu ma’ruzamiz ta’lim va fan sohasida tobora ahamiyati ortib borayotgan, jahon bilim omborining asosiga aylanayotgan elektron kutubxonalarga dahldor.

Elektron kutubxona deganda nimani tushunamiz? Uning tarkibiy qismlari

nima?Xalqaro Tarmoqdagi minglab kitoblarni o'z ichiga oladigan saytlar elektron kutubxonami yoki kutubxona saytlari hammi? Raqamli kolleksiyalarni yaratish

uchun qanday bilim va malakalar kerak bo'ladi? Ushbu ma`ruzada shu kabi savollarga javob topishga harakat qilamiz (maqolada "elektron kutubxona", "e-kutubxona" va "raqamli kutubxona" terminlari bir ma'noda qo'llaniladi).

Elektron kutubxona-Internetning ajoyib imkoniyatlaridan biridir. Bu kutubxonaning elektron shaklidir. Kutubxona deganda, odatda, ko`plab kitoblar terib qo`yilgan, uzun, katta javonlar joylashgan xonalar ko`z oldimizga keladi. Elektron kutubxonada javonlar vazifasini jildlar, kitoblar vazifasini esa Internet saxifalari bajaradi. Bu kutubxona ma'lumotlari elektron ko`rinishda bo`ladi va ular kompyuterda joylashadi. Bu kutubxonadan foydalanish juda qulay. U orqali Siz dunyoning ixtiyoriy nuqtasidagi elektron kutubxona ma'lumotlaridan foydalana olishingiz mumkin. Yana bir qulay tomoni zarur ma'lumot nusxasini ko`chirib olishingiz mumkin. Elektron kutubxonadan foydalanishingiz uchun kompyuter, modem va Internet tarmog`i bo`lishi yetarli. Faraz qilaylik, biror bir ma'lumot bilan tanishish uchun elektron kutubxonadan foydalanmoqchisiz. Kompyuter va Internet yordamida ma'lumotni bir necha daqiqada topish mumkin. Ma'lumot dunyoning ixtiyoriy nuqtasidan bir zumda sizning kompyuteringiz ekranida tasvirlanadi. Buning uchun Siz kompyuteringiz tugmachasini bosishingiz va elektron kutubxonaga kirishingiz yetarlidir. Bir necha daqiqada ma'lumot ko`z oldingizda namoyon bo`ladi. Bu mujizani eslatadi. Bu mujiza virtuallik deb ataladi. Unga faqat kompyuter va maxsus tarmoq orqali erishish mumkin. Bir necha yil avval bir maqolani topish uchun oylab vaqt sarflash zarur edi. Bugun esa bu maqsadni amalga oshirish uchun boshqa shaharga borish va vaqt sarflash zarurati yo`qoldi. Elektron kutubxonalar yordamga keldi. Elektron kutubxonalarni turlicha nomlashadi: **Elektron kutubxona, Virtual kutubxona, e-kutubxona, e-library, digital library.**

Keyingi vaqtlarda virtual dunyo, virtual olam, virtual do`st kabi so`zlar paydo bo`ldi. Virtual so`zining ma'nosi bu tasavvur qilishdir. Virtual kutubxona bu odatdagi kutubxonaning abstrakt ko`rinishidir. Bu kutubxonaning kitoblari, jurnallari va ro`znomalari kitob javonlarida emas, balki kompyuter xotirasida joylashgan bo`ladi. Bu kompyuterda yoki kompyuter maxsus qurilmalarida raqamli formatda saqlanadigan ma'lumotlar to`plamidir. Bu: bosma audio, video va multimedia ma'lumotlaridir. Ma'lumotlar xajmiga qarab, serverlar bitta yoki tarmoq bilan bog`langan bir necha kompyuterlardan iborat bo`ladi. G'arb bamlakatlarida, masalan AQShda, kutubxonalarni avtomatlashtirish 60-yillardan boshlangan, kitoblarni kompyuterga kiritish orqali elektron kolleksiyalarni yaratish 1971 yildanoq bajarib kelinmoqda. Bizning mamlakatimizda Internet tarmog`ining 90-yillarning oxiri-2000 yillarning boshidan ommalashishi bugungi kunga kelib bizga elektron kutubxonalarni yaratib, mamlakatimiz aholisi va dunyo ahli bilan alishish imkonini

bermoqda. Alisher Navoiy nomidagi Davlat Kutubxonasining kabi markaziy tashkilotlarning loyihalari, Internet tarmog'ida tashabbuskor vatandoshlarimiz tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan kolleksiyalar bunga misol. Bu loyihalarning bajarilish darajasi turlicha bo'lib, bu albatta malakali mutaxassislarning bu jarayonlarda zamonaviy bilimlarni qo'llagan holda ishtirok etganlari yoki etmaganlariga bog'liq. Xalqaro standartlar va muvaffaqiyatli amaliyotlar (*best practice*) dan xabardorlik va ko'p hollardagi vaziyatni tubdan yaxshilashi muqarrar. Shu maqsad yo'lida elektron kutubxonalar konsepsiyasi, uning tamoyillari va xorijda to'plangan tajribalar xususida so'z yuritamiz.

AQSh universitetlaridan biridagi "Elektron kutubxonalar" kursi talabalari ilmiy adabiyotdan ushbu atamaning 65 ta ta'rifini to'plab, umumiy xususiyatlarni ajratib olishdi. Unga ko'ra **elektron kutubxona**:

- *ma'lum jamoalar yoki jamoalar majmuiga xizmat qiladi;
- *yagona ob'ekt bo'lmasigi mumkin (ya'ni qismlar turi domenlar yoki tashkilotlarga birlashtirilgan);
- *barcha qismlar uchun umumiy bo'lgan mantiqiy tashkiliy strukturaga ega;
- *nafaqat erkin foydalanish imkoni, balki ta'limiy komponentlarni o'z ichiga olgan;
- *inson va texnologik resurslardan unumli foydalangan;
- *tez, samarali va to'siqsiz kirishni ta'minlaydi;
- *kirishning turli darajalarini ta'minlaydi (user, contributor, administrator va hok.);
- *bepul foydalanishni taklif etadi (ehtimol foydalanuvchilarning faqat ayrim guruhlariga);
- *resurslarga egalik va nazorat qilish;
- *kolleksiyalar:
 - **yirik va uzoq muddatga saqlab kelinadigan;
 - **yaxshi tashkillashtirilgan va boshqariladigan (fayllarning mavjud kategoriylarga to'g'ri kiritilishi, metadata qoidalarga mos shaklda ta'minlanishi va hok.);
 - **turli xil formatlarni o'z ichiga olgan;
 - **nafaqat ob'ektlar haqida ma'lumot (abstrakt, bibliografik ma'lumot va hok.), balki ularning o'ziga ham ega bo'lishi (kitob, maqola, jurnal va hok.);
 - **boshqa yo'l bilan qo'lga kiritib bo'lmaydigan noyob manbalarga ega bo'lishi;
 - **ba'zi fayllar raqamli shaklda yaratilgan (*ab origine*) bo'lishi mumkin.

Elektron kutubxona tushunchasining quyidagi ta'riflari alohida e'tiborga loyiq: Elektron kutubxonalar shu turdagi tashkilotlarki, ular raqamli asarlar kolleksiyalarini ma'lum bir jamoalar yoki jamoalar majmuiga oson va iqtisodiy jihatdan qulay holda foydalanish uchun taqdim qiladi; saralash, strukturasi tuzish, intellektual yo'l ochish, talqin qilish, tarqatish, to'laligicha saqlab qolish uchun zarur resurslar, shu jumladan, ixtisoslashgan xodimlar bilan ta'minlaydi.

Shuningdek:

1. Raqamli kutubxonalar elektron resurslar majmui bo'lib, axborotni yaratish, izlash va foydalanish uchun zarur texnik quvvatlarni o'z ichiga oladi. Bu ma'noda ular axborot saqlash va qidiruv sistemalarini to'ldiradi va kengaytiradi; distribyutlashgan tarmoqlardan job olib, har qanday ko'rinishdagi media (matn, surat, ovoz, sokin va dinamik suratlar)ni manipulyatsiya qiladi. Raqamli kutubxonaning tarkibida ma'lumotning o'zi va uning turli xossalari tasvirlaydigan metadata (masalan, aks ettirish (*representation*) yo'llari, yaratuvchisi, egasi, qayta bo'yicha huquqlar va hok.) va boshqa ma'lumot yoki metadata (tashqi yoki raqamli kutubxona ichidagi)ga bo'lgan link yoki munosabatni ko'rsatadigan elementlardan tashkil topgan bo'ladi.

2. Elektron kutubxonalar foydalanuvchilar jamoasi tomonidan shakllantirilib, ularning funksional imkoniyatlari o'sha jamoaning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi. Ular jamoalarning ajralmas qismi bo'lib, bundagi yakka shaxs va guruhlar bir-biri bilan ma'lumot, axborot va bilim resurslari hamda sistemalari orqali aloqada bo'ladilar. **Shu ma'noda elektron kutubxonalar foydalanuvchilar ehtiyojlari uchun turli resurslar to'planib, saqlanib, va taqdim etib kelinadigan an'anaviy informatsion tashkilotlarning mantiqiy davomi, kengayishi va integratsiyasidir.** Shu kabi informatsion tashkilotlar sirasiga kutubxonalar, muzeylar, arxivlar va maktablarni kiritishimiz mumkin. Shuningdek, elektron kutubxonalar sinfxona, ofis, laboratoriya, uy va boshqa o'rinlardagi faoliyatni mazmunan boyitadi. Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, tom ma'nodagi elektron kutubxona ko'pchilik fikrlaganidek bir necha o'nlab kitobning elektron versiyasi joylashtirilgan veb-saytdan farqli xususiyatlarga ega. Bu nafaqat tashabbuskor foydalanuvchi yoki foydalanuvchilar jamoasi tomonidan Wordpress, Joomla yoki boshqa ommabop kontentni boshqarish sistemasi (CMS)ning birlamchi versiyasiga joylashtirib chiqilgan elektron matnlar va hokazo fayllar majmui, balki ma'lum tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan bibliografik imkoniyatlari keng bo'lgan dasturdan foydalangan holda, resurslarni samarali izlab topilishi maqsadida to'g'ri metadata bilan ta'minlangan, doimiy faoliyat ko'rsatishi uchun muntazam ravishda boyitilib, hamda moliyaviy quvvatlanib kelinadigan butun boshli tuzilma hamdir. Shu o'rinda elektron kutubxonalar bilan chalg'itish oson bo'lgan boshqa narsalarni ajratib olsak:

Kutubxona bilan qanday ishlash mumkin?

Demak, yuqorida aytib o'tganimizdek elektron kutubxona resurslari kompyuter xotirasiga joylangan bo'ladi. Bu kutubxona ma'lumotlari elektron ko'rinishda bo'lib, kompyuterda raqamli formatda, maxsus kompyuterlar — Serverlarda joyhadi. Elektron kutubxonadan foydalanish uchun kompyuter, modem va internet tarmog'i bo'lishi yetarli. Biz esa shu kutubxona joylashgan internet manzilini bilsak

kifoya. Elektron kutubxonada mas'ul mutaxassislar ma'lumotlarni muntazam ravishda kompyuterga kiritadi va yig'adi. Ya'ni ma'lumotlar doimo yangilanib turiladi va kutubxona hajmi kengayib boradi. Elektron kutubxonada kutubxonachi bo'lmaydi, shuning uchun zarur kitob yoki ma'lumotni kompyuter javonlaridan o'zingiz qidirasiz.

Kutubxona bilan qanday ishlash mumkin? Buning uchun kompyuteringiz brauzerida kutubxona manzilini yozishingiz kerak. Odatdagi kutubxona singari elektron kutubxona ma'lumotlari mavzu yoki alifbo bo'yicha tartiblanadi. **ZiyoNET portal** ham foydalanuvchilar uchun elektron kutubxona imkoniyatini taqdim etadi – buning uchun portalning **“Kutubxona”** bo'limiga kirsangiz kifoya. So'nggi otlarga ko'ra, portal kutubxonasidan 7000 ga yaqin turli hajmdagi va turli ko'rinishdagi ilmiy axborot resurslari joy olgan. Ular asosan yurtimiz oliy o'quv yurtlari, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlari, viloyat xalq ta'limi boshqarmalari, ilmiy tadqiqot institutlari va boshqa turli ta'lim muassasalarida xamkorlik qilib kelayotgan 400 ga yaqin mas'ullar ko'magida jamlanganini alohida e'tirof etish lozim. Eng muhimi, adabiyotlarning aksariyati o'zbek tilidadir. Kutubxonada jamlangan adabiyotlar 9 ta yirik guruh toifasida tasniflanadi. O'z-o'zidan har bir guruh kichik bo'linmalarga ham bo'linadi. Guruhlar quyidagilar:

- *matematika va tabiiy fanlar ta'limi;*
- *texnika va texnologiyalar yo'nalishi ta'limi;*
- *tibbiyot va farmatsevtika ta'limi;*
- *ijtimoiy-gumanitar ta'lim;*
- *iqtisodiyot va boshqaruv yo'nalishi ta'limi;*
- *madaniyat va san'at yo'nalishi ta'limi;*
- *yuridik ta'lim;*
- *pedagogik ta'lim;*
- *harbiy ta'lim.*

Siz yuqoridagi bo'limlardan o'zingizga keraklisiga kirishingiz va adabiyotlarni ko'zdan kechirib chiqishingiz mumkin. Har bir adabiyotni ko'chirib olib, ko'z yugurtirib chiqish odatda ma'lum vaqt talab etadi. Ustiga-ustak shu mavzuda adabiyotlar ko'p bo'lgan taqdirda aynan keraklisini ajratib olish uchun yana vaqt zarur. Bunda vaqtni tejashning oson yo'li bor – siz adabiyotlar ro'yxatida xar bir adabiyotga yozilgan qisqa sharhlar ko'magida darrov o'zingizga keraklisini tanlashingiz mumkin. Zarur adabiyotni tezroq topishning yana bir oson yo'li — portalning boshqa bo'limlarida bo'lgani kabi, **“Kutubxona”** bo'limida ham qidiruv tizimi mavjud. Qidiruv maydoniga o'zingizga zarur adabiyot nomini yoki mavzuni yozasiz hamda qidiruvga buyruq berasiz. Sanoqli soniyada tizim topilgan

